

**BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA MUZEYLARNING RIVOJLANISH  
XUSUSIYATLARI**

***Sh.K.O`rinov***

*BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasи o`qituvchisi*

***M.Raupova***

*BuxDU San`atshunoslik fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aynan hozirgi vaqtida O`zbekiston hududidagi muzeylar faoliyati, iqtisodiyot rivojlanish xususiyatlari va tamoyillari haqida so`z boradi.

**Kalit so‘zlar:** IKOM, muzey predmeti, kolleksiya, eksponat.

Hozirgi kunda “Muzey” so‘zining bir qator tushunchalari mavjud bo‘lib, ma’lum darajada bu fenomenning murakkabligini anglatadi. XX asr insoniyatga yangi tipdagi muzeylarni taqdim etdi. Endi predmetlarni nafaqat saqlash va ekspozitsiyaga qo‘yish balki ularga xos atrof-muhitni, turli tarixiy-madaniy jarayonlarning lavhalarini, inson faoliyatining turlarini ko‘rsatish vaqtি kelganligi anglandi. Ochiq osmon ostidagi muzeylar paydo bo‘ldi, ularning asosini predmetlarni an’naviy kolleksiyasi emas, balki o‘zining tabiiy atrof muhitida namoyish etiladigan, xalq turmushini aks ettiruvchi me’moriy yodgorliklar tashkil etdi. Shuningdek, asl nusxadagi predmetlarni emas, ularning kopiyalarini namoyish etuvchi muzeylar ham paydo bo‘ldi.

“Muzey” tushunchasining ko‘p qirraligiga yana bir sabab, nazariy muzeysenoslikning rivojlanishi va mutaxassislarning turli tadqiqotchilik yondashuvi, hamda maqsad vazifalarning har xilligidir. So‘rov xarakteriga ega bo‘lgan nashrlarda muzeylar asosan ilmiy-tadqiqot va madaniy - ma’rifiy muassasa sifatida izohlanadi va ularning ijtimoiy funksiyalariga mos tarzda komplektlash, xisobga olish, saqlov, madaniy, tarixiy yodgorliklarni targ‘ib etish va o‘rganish ishlarini olib boradi deb yozilgan.

Xalqaro amaliyotda asosan, Muzeylarning xalqaro kengashi (IKOM) tomonidan ishlab chiqilgan qonundan foydalilanadi. Bu esa o‘z navbatida 1974 yilgi Ustavga ham kiritilgan. O‘zgarishlar kiritilgan ushbu Ustavning oxirgi variantida (ya’ni 1995 yil) quyidagilar ta’kidlanadi: “Muzey – bu doimiy, kommercheskiy bo‘limgan muassasadır, u jamiyat uchun xizmat qiladi va odamlar uchun ochiqdir. Muzey eksponatlarni to‘playdi, saqlaydi, o‘rganadi, targ‘ib qiladi va ekspozitsiyaga qo‘yadi”. Mazkur tushuncha uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi, lekin ko‘p masalalar yechilmay qoldi. Masalan, botanika bog‘lari zooparklarni ham muzey deb xisoblash mumkinmi? Axir ular tabiatning flora va fauna dunyosini

kolleksiyalariga ega, ularning saqlanib qolishini ta’minlaydi, o‘rganadi, namoyish qiladi, shu bilan bir qatorda ommaning dam olish borasidagi talablarini qondiradi. Lekin bu kolleksiyalar tabiatning o‘lik emas, jonli namunalardan tashkil topgan.

Shunga o‘xshash savollar tug‘ilganda mutaxassislarning fikrlari bo‘linadi. Birlari “muzey” deb faqat an’naviy tipdagi ilmiy, tarixiy yoki kolleksiyalarda o‘z faoliyatini asoslaydigan muassasalarga aytiladi deb xisoblaydi. Shuning uchun ular zoologiya va botanika bog‘lari, ko‘plab ilmiy muzeylar, tabiiy va tarixiy yodgorliklarni muzey deb hisoblashmaydi. Boshqa muzeyshunoslar esa, madaniy merosga nisbatan muzey xarkteri va rolini kengroq izohlaydilar. Ular inson atrofidagi barcha tabiiy, madaniy, ijtimoiyy muhit mezeyga xos deb biladilar. Mazkur fikrlarni inobatga olgan holda, barcha botanika bog‘lari, zooparklarni, tabiiy va tarixiy yodgorliklarni IKOM o‘ziga a’zo qilib olgan.

Amalda, muzey predmeti nazariyasi, asosan muzey to‘plamiga predmetlarni tanlash uchun ishlab chiqilgan mezon sifatida qo‘llaniladi va predmetlarga ilmiy tavsif yozish prinsiplarini mukammallashtirishda qo‘llaniladi. Shuning uchun “muzey predmeti” tushunchasi ko‘proq tarixiy va o‘lkashunoslik muzeylari uchun ahamiyatliroqdir; tabiiy – ilmiy muzeylarda bu tushunchaning bilish imkoniyatlari yetarli darajada chegaralangan; badiiy muzeylarda esa estetik va san’atshunoslik mezonlari ustunroq turadi. Mamlakat muzeylari ham territorial, ham mazmun jihatdan doimiy rivojlannishda bo‘lgan yopiq sistemani tashkil etadi. Bu sistema turli ixtisoslik va tipdagi muzeylarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, muzey tarmog‘i deyiladi. Muzey tarmog‘ining shakllanishi jarayoniga bir qator ijtimoiy olimlar ta’sir ko‘rsatadi: ijtimoiy talablarning o‘zgarishi, fan, san’at, moddiy ishlab chiqarish, shuningdek muzeyshunoslikdagi rivojlanish shular jumlasidandir. Muzey tarmog‘ining muvozanatlashtirilgani sezilarli ravishda, muzey ishining samaradorligiga ham g‘oyaviy planda, ham madaniy boyliklarni saqlash planida ta’sir qiladi.

Muzey ishini boshqarish organlaning muhim vazifasi, muzeylarni ixtisoslashtirishdir. Ixtisoslik deganda muzeyning biron bir fanlarning kompleksi, san’at turlari, ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga bo‘lgan munosabati tushuniladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 370-376.
2. Orinov S. K., Qodirova V. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O’RGANISHDA “AVESTO” NING O’RNI //TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 83-86.

3. Orinov S. K., Boboqulova S. MADANIYAT VA SAN'AT BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 78-82.
4. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 68-72.
5. Orinov S. K., Abdusalomova H. TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 766-770.
- Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA AHOLINING TURLI QATLAMALARIGA DIFFERENTIAL YONDASHUV //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 73-77.
6. Bobir Boltayev “Muzeyshunoslik” o'quv qo'llanma. T.: 2016 y.
7. Google platformasi.
8. Fayllar.org sayti.